

## INGLIZ TILI MORFOLOGIYASI

*Ilmiy rahbar; NDPI xorijiy tillar  
fakulteti o'qituvchisi  
M.T.G'apponova  
4- kurs talabasi: Safarova G.*

**Annotatsiya:** So'zlar, eng avvalo, anglatgan tushunchalarga ko'ra ma'lum turkumlarga bo'linadi. Tildagi so'zlar bir-biriga nafaqat anglatgan aniq ma'nolari bilan, Grammatik xususiyatlari bilan ham farqlanadi

**Tayanch tushunchalar:** morfologiya, so'z turkumlari.

**Abstract:** Words are divided into certain categories according to the concepts they primarily mean. Words in the language differ from each other not only in their meanings, but also in their grammatical features

**Key words:** morphology, word phrases

**Аннотация:** слова делятся на определенные категории в соответствии с понятиями, которые они в первую очередь означают. Слова в языке отличаются друг от друга не только конкретными значениями, но и грамматическими особенностями.

**Ключевые слова:** морфология, фразы

Biror so'roqqa javob bo'lib, ko'pincha atash ma'nosini bildiruvchi, gapda ma'lum bir gap bo'lagi yoki undalma vazifasida keladigan so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi. So'roqqa javob bo'lmaydigan, atash ma'nosini bildirmaydigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi. Ingliz tilida so'z turkumlarning tasnifi 3 ta tamoilga asoslanadi: ma'no, shakl va vazifa. Ma'no deganda har bir so'zning alohida ma'nosini emas, balki bir sinfga tegishli so'zlarning ma'nosini tushunamiz. Masalan, otning ma'nosi narsalik yoki predmetlik ( thing-ness), shakl deganda esa biz so'z turning morfologik tafsiflanishini tushunamiz. Masalan, ot birlik va ko'plil kategoriyasi bilan tafsiflanadi, fe'llar esa zamon, nisbat, mayl kabilar orqali tavsiflanadi. Ba'zi so'z turkumlari ( predloglar, bog'lovchilar ) o'garmasligi bilan xarakterlanadi.

Vazifa deganda biz, so'zlarning sintaktik funksiyalarini tushunamiz. Masalan, boshqa so'zlar bilan birika olishi yoki uning gapdagi vazifasi. Tilshunoslar orasida so'z turkumlarining tafsiflanishi turlichadir. Ingliz tili ilmiy grammatikasining birinchi muallifi bo'lmish G.Suit so'z turkumlarini o'zgaradigan ( declinable ) va o'zgarmaydigan ( indeclinable ) 2 asosiy guruhga ajratadi. Bu tasnifda morfologik xususiyatlarni asosiy deb hisoblaydi. B.Ilyish. so'z turkumlarini 12ta guruhga ajratadi. ( 6ta mustaqil va 6ta yordamchi) prepositions, conjunctions, particles, modal words, articles, interjections. B.S.Xaymovich va Rogovskayalar so'z turkumlarini 14 ta

mustaqil, 8 ta yordamchi-prepositions , concujetions, particles, modal, interjections , response words , state word leksimalariga ko'ra quyidagi turlarga ajratadi

1. Leksik –grammatik ma'nosiga ko'ra
2. Leksik-grammatik morfemalarga ko'ra
3. Gramatik kategoriyalariga ko'ra
4. Boshqa so'zlar bilan birikishiga ko'ra
5. Gapdagi vazifasiga ko'ra

Ot (noun) , sifat( adjective), olmosh ( the pronoun) , son( numeral) , Fe'l( verb ) Ravish (adverb), modal ( modal verbs ) , yuklama ( particle) , bog'lovchi ( the cojunction )

Ingliz tilida so'zlar ko'pincha morfologik jihatdan belgilanmaydi va so'zlarning bir sinfdan ikkinchisiga o'tishi oson (ot , sifat , predlog,) sifatida . bunday so'zlar yo leksik Grammatik omonimlar yoki bir sinfga mansub so'zlar sifatida qaraladi.

Ingliz tilshnosligida ham so'zlarni turkumlarga ajratishda affikslarning ham ahamiyati brmuncha muhim. Biroq, ingliz tilida ko'p so'zlar o'zgarmasdir, shu bois anchagina so'zlarda hosila affikslar yuq .

Hozirgi ingliz tilida ichki fleksiya juda keng qo'llanmasa-da, hamon o'z ifodasini yuqotgani yo'q. Bu xususiyat biz obyekt sifatida o'rganiyotgan o'zbek tiliga xos emas.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'.U. Usmonov, Sh.S.Ashurov “ingliz til nazariy grammatikasi” Samarqand, 2007, b-20
2. Usmanova , M. “ SOME NOTE OF SIMLIFICATION OF MORPHEMIC STRUCTURE OF THE UZBEK LANGUAGE . theoretical and applied science
3. Usmonova . M. SIMLIFICATION COMPOUND WORDS IN UZBEK LANGUAGE . science and innovation